

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOTIROV ZAFAR SAYDULLAYEVICH**

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT  
BARPO ETISHNING HUQUQIY TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNI  
NAZARIY VA AMALIY MASALALARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Botirov Zafar Saydullayevich**

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy  
tizimini takomillashtirishni nazariy va amaliy masalalari .....3

**Ботиров Зафар Сайдуллаевич**

Теоретические и практические вопросы совершенствования правовой  
системы построения социального государства в  
обновляющемся Узбекистане .....23

**Botirov Zafar Saydullaevich**

Theoretical and practical issues of the legal system improving for building  
a social state in renewing Uzbekistan .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOTIROV ZAFAR SAYDULLAYEVICH**

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT  
BARPO ETISHNING HUQUQIY TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNI  
NAZARIY VA AMALIY MASALALARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1640 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xajiyeva Maksuda Sultanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Teshayev Nutfullo Nasrullayevich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**


**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" Oktabr soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (726 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" Sentyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "26" Sentyabr dagi 34 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Safarova N.O.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish sharoitida mamlakatlar taraqqiyoti, ularning ijtimoiy davlat sifatida shakllanishi va huquqiy tizimining samaradorligi inson qadrini yuksaltirish, huquq va erkinliklarni kafolatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash darajasiga bog'liq bo'lib, "ijtimoiy davlat" tamoyilini huquqiy jihatdan mustahkamlash zaruratini ko'rsatmoqda. Bu esa davlatning nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki jamiyat a'zolarining ijtimoiy himoyasi, munosib hayoti, farovonligi va inson qadriyatlarini yuksaltirishni asosiy maqsad sifatida qo'yishini talab etib, huquqiy tizimni takomillashtirishni asosiy shartga aylantirmoqda. Shu sababli inson huquqlarini ta'minlashda ijtimoiy davlat g'oyasining mazmun-mohiyati, uni yangi tendensiyalar hamda o'zaro aloqadorlik qonuniyati orqali boyitib borish muammolarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida ijtimoiy davlatning tabiati, siyosiy-huquqiy hayoti va uni ijtimoiy amaliyotda qo'llash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Fuqarolarning jamiyatdagi faolligi, ijtimoiy munosabatlarda munosib ishtiroki, ijtimoiy adolat, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslarni takomillashtirish, fuqaroning "ijtimoiy davlat" konseptual tizimida huquqiy va siyosiy salohiyatini oshirish, yoshlarni Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash dolzarb muammolar qatoridan joy olmoqda. Shu bois, O'zbekistonning yangilanish jarayonida ijtimoiy davlat barpo etish, islohotlarning samaradorligini oshirish va ijtimoiy davlat konsepsiyasining ijtimoiy adolat, tenglik, ijtimoiy himoya va inson huquqlari bilan bog'liq tamoyillarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda har bir insonning o'z salohiyatini to'la-to'kis ro'yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, inklyuziv rivojlanish hamda fuqarolarning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimi, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz, munosib hayot kechirishiga erishishga oid islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. "Biz yurtimizda amalga oshirilayotgan "Kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlash" konsepsiyasini yangi bosqichga ko'tarish orqali chinakam ijtimoiy davlat qurishni rejalashtirganmiz. Chunki aholining muhtoj qatlami manfaatlarini munosib himoya qilingan, barcha sohada adolat mustahkam qaror toptirilgan ijtimoiy davlat barpo etish – barqaror rivojlanishning eng muhim sharti ekanligi jahon tajribasidan ham yaxshi ma'lum. ... Ijtimoiy davlat qurish g'oyasining negizida, avvalo, inson qadrini ulug'lash va aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam"<sup>1</sup>. Shuning uchun Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan ijtimoiy davlatning inson haq-huquqlarini ta'minlashdagi o'rnini, ijtimoiy himoya tizimi, mehnat huquqlari va tenglik tamoyillarini mustahkamlash orqali aholi farovonligini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlarini hamda huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: "O'zbekiston", 2024. – Б.61-62.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 8-maydagi PF-67-son “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 588-son “2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mavzuga oid ilmiy fikrlar Sharq va G‘arb mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida mavjud. Jumladan, ijtimoiy davlat tushunchasi va fuqarolik mas’uliyatining o‘rni borasidagi fikrlar o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Nizomulmulk, Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlarning qarashlarida aks etgan<sup>2</sup>.

Qadim zamonlardan boshlab bugungi kunga qadar jamiyatda inson huquqlarini ta’minlashda ijtimoiy davlat o‘rni va huquqiy tizimni takomillashtirish masalasi olimlar va boshqalarning diqqat markazida turgan. Bu o‘rinda xorijlik olimlardan G.A.Almond, S.Verba, V.M.Juykov, D.M.Trubek, P.Bardxan, V.Tanzi, D.Kaufmann va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarni kiritish mumkin. Shu bilan birga, G‘arbda ijtimoiy davlat nazariyalari haqidagi g‘oyalarni rivojlantirgan mutafakkirlar ichida M.Woolcock, Tomas Gobbs, N.Q.Suu, B.H.Tung kabilar alohida o‘ringa ega. XX asrda G.Kissendjer, Zb.Bzejnskiy, E.Fromm, K.Popper,

---

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. - 160 b.; Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. 3 жилд. – Т.: Мерос, 1966. – 280 б.; АбуАли Ибн-Сина. Избранные произведения. Душанбе: Ирфон, т. 1, 1980 -160 с.; Махмуд Қошғарий. Девону луғат ат-турк. I том. /Солиҳ Мутталибов таржимаси. –Т.: 1960. – 260 б.; Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Иккинчи тўлдирилган нашр./Таржимон. Шодмон Воҳид, Афтондил Эркинов. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2008. 240 б.; Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 804 б.; Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: Юлдузча, 1989. – 367 б.

F.Fukuyama, I.Vallersteyn, D.Held, S.Makdaniel, S.Pierson, R.Aron, H.Bohel, P.Martin, V.Beytmenlargacha bo‘lgan tadqiqotchilar muammoning ayrim, ilmiy metodologik ahamiyatga ega masalalarini o‘rganishgan<sup>3</sup>.

MDH mamlakatlarida ham mazkur masala tadqiqotchilar e‘tiboridan chetda qolgan emas. Keyingi yillarda bu yurtlarda mavzuga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar, monografiya va maqolalar nashr etildi. Ularda ijtimoiy davlat barpo etishning axloqiy jihatlarini shakllanishi bilan bog‘liq ko‘plab muammolar atroflicha talqin qilinadi. Masalan, Y.Vishnevskiy, O.Rodionova, D.Trishov, A.Shkitin bugungi jamiyatda ijtimoiy davlat shakllanish muammolarining o‘ziga xos xususiyatlarini, L.Kochetkova, G.Gravseva, E.Karimgojinalar ijtimoiy majburiyatlar tizimining davlat boshqaruvining fuqarolik asosining mohiyati, V.Domanov va V.Kovalev zamonaviy fuqarolik jamiyati bilan ijtimoiy davlat o‘rtasidagi aloqadorlikni, V.Fedotova mustaqillikka erishgan mamlakatlardagi shaxs fuqarolik madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ochib berdilar<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Almond, Gabriel A. "Political Theory and Political Science". American Political Science Review 60(4): 1966. - pp.869–879; Алмонд Г., Верба С. Гражданская культура: политические установки и демократия в пяти странах / пер. с англ. Е. Генделя. -М.: Мысль, 2014. -500 с.; Жуйков В.М. Проблемы гражданского процессуального права. -М.: Городец, 2001, 288 с.; Trubek D. M. Toward a social theory of law: an essay on the study of law and development //The Yale Law Journal. – 1972. – Т. 82. – №. 1. – С. 1-50.; Бардхан П. Индия и Китай: вопросы управления и развитие. // J. of Asian studies. -Ann Arbor, 2009. - Vol. 68, N 2. - P. 347-357; Вито Танци. Правительство и рынки. Меняющаяся экономическая роль государства. - М.: Издательство Института Гайдара, 2018. - 584 с.; D.Kaufmann. Civil Liberties, Democracy, and the Performance of Government Projects (with J. Isham & Pritchett, L.) World Bank Economic Review, Vol. 11, No. 2, pp. 219–242, 1997.; Woolcock M. Social capital in theory and practice: Reducing poverty by building partnerships between states, markets and civil society //Social capital and poverty reduction: which role for the civil society organizations and the state. – 2002. – Т. 20. – С. 44.; Гоббс Т. Левиафан, или материя, форма и власть. – Москва: Директ-Медиа, 2002. – 1205 с.; Suu N. Q., Tung B. H. New Theoretical Perceptions of the Control of State Powers in Building the Rule-of-Law State //Revista De Gestão Social E Ambiental. – 2023. – Т. 17. – №. 7. – С. 1-10.; Киссенжер Г. Мировой порядок.- Москва: AST Publishers, 2015. 574 с.; Бэжинский З. Великая шахматная доска: господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: АСТ, 2014. 702 с.; Фромм Э. Озодликдан қочиш.- Т.: Янги аср авлоди, 2021. 348 б.; Поппер К. Открытое общество и его враги.- Москва: Культурная инициатива, 1991. 390 с.; Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. - Москва: АСТ, 2016; Валлерстейн И. Конец знакомого мира. Социология XXI века. – М.: Логос, 2004. 364 с.; Held D. Models of Democracy. Oxford, 1987; McDaniel, S. Post-crisis social democratic policy capacity in France and the United Kingdom: A lesson from the globalisation and social democracy debate. – France, 2014. – P.12, 283-309; Pierson, C., & Leimgruber, M. Intellectual Roots of the Welfare State. The Oxford Handbook of the Welfare State, 2021; Арон Р. Демократия и тоталитаризм. – М.: ИНФРА, 1998; Bochel H., & Martin P. The transformation of the welfare state? The Conservative-Liberal Democrat coalition government and social policy, in Hugh Bochel, and Martin Powell (eds), The Coalition Government and Social Policy: Restructuring the Welfare State (Bristol, 2016; online edn, Policy Press Scholarship Online, 19 Jan. 2017); Bateman, W. (2020). Public Finance and Parliamentary Constitutionalism. Cambridge University Press.

<sup>4</sup> Вишнеvский Ю.Р., Трышов Д.В., Шапко В.Т. Гражданская культура студентов. Тенденции и проблемы формирования. //Социологические исследования, 2009, –№ 4. – 108-116-с; Родионова О.В. Социальная функция современного государства: диссертация ... доктора юридических наук: Ин-т государства и права РАН]. – М., 2007. – 353 с.; Трышов Д.В. Гражданская культура студентов. Тенденции и проблемы формирования. //Социологические исследования, 2009, № 4. -108-116-с; Шкитин А.В. Социальное государство: Проблемы формирования и ресурсы существования: дисс. на соискание уч. ст. канд. философских наук. – М., 1999. – 135 с.; Каримгожина Э. М. Әлеуметтік міндеттемелер жүйесін мемлекеттік басқару (баспанамен қамтамасыз ету мысалында) философия докторы (PhD) дәрежесін алу үшін дайындалған диссертациясы: Қазтұтынуодағы Қарағанды экономикалық ун-ті... – Қарағанды: [б. ж.], 2016; Гревцева Г.Я. Гражданственность и гражданская культура – результат становления гражданского общества. //Вестник Челябинского государственного университета, 2012, –№18. – 55-57-с; Кочеткова Л.Н. Теория и практика социального государства: социально-философский анализ: диссертация ... доктора философских наук : 09.00.11 / Кочеткова Людмила Николаевна; [Место защиты: Рос. гос. социал. унт]. – М., 2010. – 334 с.

<sup>4</sup> Доманов В.Г. Современное гражданское общество в контексте структурно-функционального дискурса. – Ростов-н/Д.: Изд-во СКАГС, 2010; Ковалев В.В. Гражданская культура как базовый конструкт гражданского



Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan ham yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlatning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tomonlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan keng tahlil etilmoqda. Jumladan: davlat boshqaruvida inson huquqlarining roli, ijtimoiy davlat rivoji mohiyati va falsafiy jihatlari X.Odilqoriev, S.Otamurodov, J.Yaxshilikov, A.Choriyev, T.Jurayev, Q.Nazarov F.Musaev, A.Saidov, N.Jo'rayev, Sh.Paxrutdinov, A.Qodirov, V.Qo'chqorov va A.Jurayev, E.Qodirov, A.Xuseynova tadqiqotlarida ochib berilgan<sup>5</sup>.

Mazkur dissertatsiyani yozish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan, shuningdek, boshqa bir qator o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. Ammo shunga qaramay, yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy tizimini takomillashtirishni nazariy va amaliy masalalari hali maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligi bois, mazkur dissertatsiyada yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy tomonlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01 "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ijtimoiy davlat tushunchasi, mazmun-mohiyati va uning huquqiy tizimini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy davlat g'oyasining tarixiy evolyutsiyasi va konseptual yondashuvlarini ochib berish;

---

общества. //Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС, 2014, –№1. –179-184-с; Федотова В.Г. Гражданская культура: концепция для обществ, вступивших в демократию. //Вопросы социальной теории, 2015, –Т. 7, – №1-2. –178-199-с; Хейвуд Э. Политология. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005; Рахимов М.Х. Адолат ва инсон ҳуқуқлари: фалсафий таҳлил. – Душанбе, 2014.

<sup>5</sup> Одилқориев, Х. Т. Сиёсий маданият: назарий-қиссий тадқиқот / Х. Т. Одилқориев, Ш. Ф. Ғойибназаров. – Т.: ИИВ Академияси, 2004. – Б. 39–40; Отамуродов, С. Миллий ривожланиш фалсафаси / С. Отамуродов. – Т.: Akademiya, 2005. – Б. 243; Yakshilikov, J. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi / J. Yakshilikov. – Toshkent: Cho'lpon, 2018. – В. 550-551; Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб.- Тошкент:Чинор, 2002. 220-бет.; Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. –Т.: Академия, 2007.; Nazarov, Q. Falsafa asoslari / Q. Nazarov. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – 325 b.; Мусаев, Ф. Демократик давлат қурилишининг фалсафий-ҳуқуқий асослари / Ф. Мусаев. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 172 б.; Саидов, А. Х. Шарқ цивилизацияси: инсон ва ҳуқуқ (Ўтмиш ва ҳозирги замон) / А. Х. Саидов, А. Ш. Жузжоний. – Т.: Адолат, 2005. – 180 б.; Жўраев Н. Тарих фалсафаси. - Т.: "Ўқитувчи", 1999. -88 б.; Пахрутдинов, Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт / Ш. Пахрутдинов. – Т.: Akademiya, 2006. – 180 б.; Qodirov, A. Aziz va yagonamsan jonajon O'zbekistonim / A. Qodirov, T. Narbayeva va boshq. – Toshkent: Muharrir, 2018. – 65 b.; Qo'chqorov, V. Siyosiy o'zlikni anglashning ayrim jihatlari / V. Qo'chqorov // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. – № 1. – В. 62.; Jurayev A.N. Davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish choralari qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati. –Toshkent, 2024. – 68 b.; Қодиров Э.О. Ёшларнинг ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини юксалтириш. Монография // Масъул муҳаррир: ю.ф.д., доц. И. Тультеев. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018 йил, 192 б.; Хусейнова А.А. Янги Ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг асосий омиллари // Журнал правовых исследований. –2022. –Т. 7. –№5.;



ijtimoiy davlatning asosiy funksiyalari, huquqiy tizimi, uning davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv mexanizmidagi rolini asoslab berish, inson huquqlarini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy omillar rolini hamda ijtimoiy davlatning rivojlanish dinamikasini va mezonlari tizimini tadqiq etish;

O'zbekistonda ijtimoiy davlat huquqiy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash;

yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatini modernizatsiyalash, inson manfaatlarini ta'minlash va qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlatning huquqiy tizimini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayoni va huquqiy tizimni takomillashtirish tizimi tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslari, funksiyalari, huquqiy tizimni takomillashtirish yo'llari va mexanizmlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, germeneytik va sinergetik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ijtimoiy davlatning axloqiy munosabatlar va milliy-ma'naviy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan o'zbek modelini shakllantirishda jamoaviylik (birdamlik va hamjihatlik) va paternalizm (ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash) tamoyillarining huquqiy asoslarini (ijtimoiy siyosatda mahalla instituti rolini oshirish, hamkorlik tamoyiliga asoslangan yoshlar siyosatini rivojlantirish, jamoaviy manfaatlarini huquqiy himoya qilish) mustahkamlash zarurati asoslab berilgan;

O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy tizimini takomillashtirish jarayonida demokratik islohotlarda transsendentalizm (shaxsiy erkinlik, davlat aralashuvini cheklash), personalistik ontologizm (inson qadri va huquqlari ustuvorligi), madaniy-tarixiy relyativizm (milliy madaniyat ustunligi, "boshqa madaniyatlar"ga nisbatan muhosasizlikka qarshi kurash) kabi yondashuvlar ijtimoiylashuv mexanizmlarining buzilishini barataraf etuvchi va fuqarolik jamiyati taraqqiyotini ta'minlovchi indikator ekanligi aniqlashtirilgan;

ijtimoiy davlatda inson huquqlarini axloqiy-huquqiy reglamentlashtirish ("huquq va axloq birligi" g'oyasi) asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish va yuksaltirish (axloqiy ong va ma'naviy tamoyillar orqali mustahkamlash) omili inson huquqlarini kafolatlashning zamonaviy mexanizmi hamda huquqiy normalarning milliy qadriyatlarni yuksaltirish vositasiga aylanishi isbotlangan;

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasini ijtimoiy adolat (mehnat va iqtisodiy resurslardan foydalanishda teng huquqli bo'lish, adolatli taqsimot, huquqiy va axloqiy muvozanatni ta'minlash), tenglik (gender tengligi, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va diniy bag'rikenglik), ijtimoiy himoya

(muhtoj fuqarolarga g'amxo'rlik, insonga munosib hayot darajasini ta'minlash) va inson huquqlari ("birinchi avlod", "ikkinchi avlod", "uchinchi avlod") bilan bog'liq tamoyillar asosida takomillashtirish xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy tizimini takomillashtirishda davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv mexanizmlarini mustahkamlash hamda inson huquqlarini ta'minlashda milliy qadriyatlarning tartibga soluvchi (regulyativ) va uyg'unlashtiruvchi (integrativ) funksiyalarining transformatsion (ijtimoiy munosabatlarni yangilash) va innovatsion (huquqiy tizimni inson qadri ustuvorligi asosida rivojlantirish) xususiyatlari ochib berilgan;

ijtimoiy davlatning mezoniy o'lchovida ijtimoiy omil (aholining turmush darajasi, davlatning ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan sa'y-harakatlari), iqtisodiy omil (iqtisodiy islohotlarning samaradorligi, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlari), siyosiy omil (demokratik islohotlarning samaradorligi, siyosiy faollik) indikator sifatida hamda ma'rifiy jamiyatning mezoniy o'lchovida esa axloqiy (vijdon, mas'uliyat, intizom), ma'naviy (inson qadri, milliy g'oya va qadriyatlar) va madaniy (madaniyatlararo muloqot va bag'rikenglik) rivojlanish indikator ekanligi aniqlashtirilgan;

ijtimoiy davlatning huquqiy tizimini rivojlantirishning boshqaruv tizimini demokratlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish kabi ijtimoiy-siyosiy va milliy qadriyatlarni huquqiy islohotlar mazmuniga singdirish, huquqiy va axloqiy ongni rivojlantirish kabi ma'naviy-madaniy imkoniyatlarini amalga oshirishga doir qonunchilikni ijtimoiy adolat va inson huquqlari indikatorlari orqali baholash tizimini joriy etish, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni hududiy o'ziga xoslikni inobatga olgan holda amalga oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan ijtimoiy davlat tushunchasi, uning huquqiy tabiati va evolyutsiyasi haqidagi falsafiy-nazariy qarashlarni boyitishda, shu yo'nalishda olib boriladigan nazariy tadqiqotlarda, ijtimoiy davlat barpo etish jarayonini tahlil qilish, konstitutsiyaviy asosi, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati rivojlanishiga oid ilmiy metodologiyani kengaytirishda hamda ijtimoiy davlatning umumjahon va milliy xususiyatlarini, milliy-ijtimoiy davlat modeli uchun falsafiy asos yaratishda, davlat va jamiyat munosabatlarini yangicha g'oyalar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiyada bayon qilingan taklif va tavsiyalardan inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, xususan, ma'naviyat va ma'rifat markazlarining amaliy faoliyatlarida qo'llaniladigan nazariy-metodologik qo'llanmalarni tayyorlashda, davlat boshqaruvi va qonunchilik faoliyatida, inson huquqlarini ta'minlash faoliyatida va ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy asoslarini mustahkamlashda, inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishda, normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasida, falsafiy mezonlar orqali ijtimoiy adolatga moslik, inson manfaatlari ustuvorligini baholashda qo'llanilishi, o'quv-modullar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy nazorat, ommaviy fikr shakllantirish, konstitutsiyaviy qadriyatlarni targ'ib etish bo'yicha nazariy-metodologik asoslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlatning huquqiy tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida:

ijtimoiy davlatning axloqiy munosabatlar va milliy-ma'naviy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan o'zbek modelini shakllantirishda jamoaviylik (birdamlik va hamjihatlik) va paternalizm (ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash) tamoyillarining huquqiy asoslarini (ijtimoiy siyosatda mahalla instituti rolini oshirish, hamkorlik tamoyiliga asoslangan yoshlar siyosatini rivojlantirish, jamoaviy manfaatlarni huquqiy himoya qilish) mustahkamlash zaruratiga oid xulosalar va taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829 raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-iyundagi 04/11-8173-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda ijtimoiy davlat barpo etish yo'lida huquqiy tizimni takomillashtirish hamda milliy qadriyatlarni mustahkamlash va fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan;

O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy tizimini takomillashtirish jarayonida demokratik islohotlarda transsendentalizm (shaxsiy erkinlik, davlat aralashuvini cheklash), personalistik ontologizm (inson qadri va huquqlari ustuvorligi), madaniy-tarixiy relyativizm (milliy madaniyat ustunligi, "boshqa madaniyatlar"ga nisbatan muhosasizlikka qarshi kurash) kabi yondashuvlar ijtimoiylashuv mexanizmlarining buzilishini barataraf etuvchi va fuqarolik jamiyati taraqqiyotini ta'minlovchi indikator ekanligiga doir ilmiy asoslangan xulosalar va umumlashmalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish" mavzusidagi davlat grant loyihasi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-iyundagi 04/11-8172-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayonida huquqiy tizimni takomillashtirish bo'yicha nazariy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarni

chuqur o'rganish va jamiyatda tenglik, adolat, ijtimoiy hamda barqarorlikni ta'minlovchi samarali huquqiy asoslarni shakllantirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy davlatda inson huquqlarini axloqiy-huquqiy reglamentlashtirish ("huquq va axloq birligi" g'oyasi) asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish va yuksaltirish (axloqiy ong va ma'naviy tamoyillar orqali mustahkamlash) omili inson huquqlarini kafolatlashning zamonaviy mexanizmi hamda huquqiy normalarning milliy qadriyatlarni yuksaltirish vositasiga aylanishiga oid yangiliklar va tavsiyalardan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Saylovoldi dasturidagi "Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar"ning 5.1 bandi "Milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasida" va 6.3 bandi "Davlat va jamoat tashkilotlari boshqaruvini takomillashtirish"da foydalanilgan (O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2025-yil 10-iyuldagi 01-27/297-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiyaning saylovoldi dasturi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, targ'ibot tadbirlarida ishtirok etib, jamiyatda inson huquqlarini ta'minlashning umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va fuqarolarning huquq va erkinliklariga mone bo'lmagan odob-axloq qoidalari huquq normasi sifatida ifoda etilishining ta'minlanishi yangi jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishida xizmat qilgan;

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasini ijtimoiy adolat (mehnat va iqtisodiy resurslardan foydalanishda teng huquqli bo'lish, adolatli taqsimot, huquqiy va axloqiy muvozanatni ta'minlash), tenglik (gender tengligi, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va diniy bag'rikenglik), ijtimoiy himoya (muhtoj fuqarolarga g'amxo'rlik, insonga munosib hayot darajasini ta'minlash) va inson huquqlari ("birinchi avlod", "ikkinchi avlod", "uchinchi avlod") bilan bog'liq tamoyillar asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan 2025-yilda efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" ko'rsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 7-iyuldagi 05-09-1088-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarimizda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yuksaltirishda va demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qaror topdirishda milliy qadriyatlarimiz hamda milliy ma'naviy merosimiz muhim nazariy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 150 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda huquqiy tizimning nazariy-metodologik asosi”** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy davlat g‘oyasining evolyutsiyasi va huquqiy tabiati tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda davlat va jamiyatni modernizatsiyalash ijtimoiy davlat barpo etish borasidagi muhim strategik vazifa sifatida belgilangan. Bu masalalarning muvaffaqiyatli kechishi, *birinchidan*, huquqiy tizimning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, *ikkinchidan*, ularni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishga bog‘liq. Mazkur sohada qo‘yilgan vazifalarni yechish inson omilini tadqiq etish uchun yangicha qadriyatlar asosida o‘rganishlar olib borish demakdir.

Tadqiqotda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “ijtimoiy davlat” tamoyili alohida modda sifatida mustahkamlanishi, fuqarolarning munosib turmush tarzini ta‘minlash, ta‘lim va tibbiyotga bo‘lgan huquqlarini kafolatlash, mehnat qilish va dam olish masalalarini himoya qilish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi qayd etilgan. Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta‘minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta‘lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”<sup>6</sup>. Shuning uchun insonni ulug‘lash, uning qadr-qimmatini oshirish va ijtimoiy manfaatlarini ta‘minlash insoniyatning eng asosiy muammolaridan bo‘lib kelgan.

O‘zbekistonda inson manfaatlarini himoya qilishda aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ijtimoiy yordamlar jamiyatning ba‘zi bir nochor qatlamlariga, ya‘ni o‘zini boqish uchun o‘zi ishlab pul topish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlar (bolalar, qariyalar, nogironlar va o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan sharoitga ko‘ra ishlab chiqarishda band bo‘lmaganlar)ga qaratiladi.

Dissertatsiyada ijtimoiy muhofaza konsepsiyasi o‘zining keng ko‘lamli mohiyati bilan jamiyatdagi rivojlanish mezonlarini o‘zida mujassamlashtirishi va

---

<sup>6</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2023. – Б.373.

inson manfaatlarini birinchi o'rinda turishini kafolatlashi asoslab berilgan. *Ijtimoiy muhofaza – bu mehnatga qodir fuqarolarga mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritish va turmush sharoitlarini yaxshilash imkoniyatini yaratuvchi, shu bilan birga, mehnatga layoqatsiz aholiga davlat tomonidan moddiy ko'mak, pensiya va nafaqalar ko'rinishida yordam ko'rsatuvchi huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlar majmuasidir.* Turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bosqichlari va o'tish davrlari bilan bog'liq ko'plab ilmiy yondashuvlar, kontseptual qarashlar va nazariy asoslar, ilmiy-falsafiy yondashuvlar tadqiqotda quyidagicha guruhlar bo'yicha tasniflangan:

- Dastlab, jamiyat shakllanishi va rivojlanish jarayonlariga bag'ishlangan g'oyalar;

- Keyinchalik, jamiyatning iqtisodiy va madaniy o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar va g'oyalar;

- Nihoyat, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi va transformatsiyasi bilan bog'liq nazariyalar.

Insoniyat tarixining umumiy qonuniyatlarini ochish va tahlil qilish masalasi qadimdan mutafakkirlar e'tiborini tortib kelgan. Ijtimoiy davlat – o'z fuqarolariga minimal farovonlik darajasini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan, bozor munosabatlarining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan davlat tizimi sifatida ta'riflangan.

Tadqiqotchi fikricha, ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mazmuni jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida shakllangan bo'lib, u inson huquqlari, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va davlatning fuqarolar oldidagi javobgarligi kabi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tushuncha turli davrlarda va turli ijtimoiy-siyosiy tizimlarda turlicha mazmun bilan boyigan, har bir tarixiy bosqichda o'ziga xos falsafiy va amaliy talqinlarga ega bo'lgan. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi o'z ifodasini bir qator nazariy yondashuvlarda topgan bo'lib, ularning mazmuni zamonaviy demokratik qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari va sivilizatsiyaviy taraqqiyot jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida inson huquqlari, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borgan. Ayniqsa, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy nomutanosiblik va ma'naviy inqirozlar sharoitida davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati muhim vazifa sifatida qaralgan. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy davlat g'oyasi tarixiy jarayonlar mobaynida vujudga kelib, turli mafkuraviy oqimlar va siyosiy nazariyalar ta'sirida takomillashib borgan. Insonning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topib borishi ideal qadriyat ekani, uning jamiyatdagi faol ishtiroki, o'zini anglash, huquq va burchlarini bajarish orqali namoyon bo'lib, barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim omildir.

Dissertatsiyada ijtimoiy davlat tushunchasi jamiyat o'sishining ma'lum darajasida shakllangan bo'lib, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, teng sharoitlar va davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati singari tamoyillarga tayanishi, bu g'oya turli davrlarda va turli ijtimoiy-siyosiy tizimlarda turlicha mazmun kasb etgani, har bir tarixiy davrda o'ziga xos falsafiy va amaliy talqinlarga ega bo'lganligi ta'kidlangan. Shu jihatdan ijtimoiy davlat konsepsiyasi – nafaqat siyosiy shakl,

balki tarixiy zaruratdan kelib chiqqan va kelajak rivojlanish uchun asosiy yoʻnalishlardan biri sanaladi. *Ijtimoiy davlat yaratish – bu maʼlum tarixiy davrda mamlakatni zamonaviy tamoyillar asosida, erkin va demokratik yoʻnalishda rivojlantirish uchun zarur boʻlgan transformatsiya jarayonidir.*

Dissertant mulohazalariga koʻra, Oʻzbekistonda ijtimoiy yoʻnaltirilgan davlat barpo etishda huquqiy tizim asosiy tayanch nuqta boʻlib xizmat qilmoqda. Bu tarkib inson huquqlari va erkinliklarini tan oluvchi demokratik meʼyorlarga, konstitutsiyaviy anʼanalarga hamda adolat tamoyillariga tayanishi zarur. Jamiyatimizda ijtimoiy davlat barpo etish deganda fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, teng sharoitlar yaratish, adolat va farovonlikni kafolatlashga yoʻnaltirilgan davlat shakli tushuniladi. Nihoyat, ijtimoiy davlatning huquqiy mohiyati uning asosiy meʼyorlari, vazifalari va faoliyati asosiy qonun hamda boshqa meʼyoriy hujjatlar orqali belgilanishida namoyon boʻladi. Bunday davlatda inson huquqlari va erkinliklari bosh oʻrinda boʻlib, fuqarolarga taʼlim olish, davolanish, ijtimoiy taʼminot, mehnat qilish va munosib turmush kechirish huquqlari kafolatlanadi. Huquqiy meʼyorlar davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini aniqlab, ijtimoiy adolat va tenglikni qonuniy asosda taʼminlaydi.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy davlat barpo etishda huquqiy tizimning oʻziga xos xususiyatlari va funksional ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida ijtimoiy davlatning asosiy funksiyalari, xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy davlat tamoyili va huquqiy tizimi hamda inson huquqlari masalasi falsafiy tahlil etilgan.

Oʻzbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini taʼminlash, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, inson qadriyatini eng yuqori darajaga koʻtarish kabi huquqiy tamoyillar alohida ahamiyat kasb etmoqda. “Ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqida, oʻz fuqarolarining farovonligi, ularning ijtimoiy himoyalanganligi xususida gʻamxoʻrlik qiladigan davlatni anglatadigan tushuncha”<sup>7</sup>dir.

Tadqiqotda milliy yuksalish sharoitida ijtimoiy davlatning asosiy vazifalarini bir qancha ijtimoiy institutlar oʻz zimmasiga olishi quyidagicha tartiblashtirilgan:

1. Ijtimoiy sohadagi vazifa – oʻziga taalluqli hududda aholi kundalik hayoti bilan bogʻliq ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishi, hududni har jihatdan rivojlantirish, taʼlim, sogʻliqni saqlash, sport, ijtimoiy himoya masalalarini hal etishga yordamlashish, ayniqsa ijtimoiy nochor insonlarni doimiy qoʻllab-quvvatlash kabi vazifalarni amalda koʻrsatish.

2. Maʼnaviy sohadagi vazifa – fuqarolar maʼnaviyatini koʻtarish ishlarini boshqa maʼrifiy idoralar bilan birgalikda hal etish, inson qadriyatlarini asrab qolish, hududda osoyishtalikni asrash va tahdidiy koʻrinishlarga barham berish ishlariga koʻmak berib borish, aholini bunyodkor tashabbuslar atrofida uyushtirish, toʻy-maʼrakalarni qisqartirish, maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot tadbirlarini jonlashtirish, aholining huquqiy va maʼnaviy madaniyatini yanada oʻstirish.

3. Iqtisodiy sohadagi vazifa – mahalla hududida iqtisodiy tuzilmalarni aholi uchun moddiy neʼmatlar yaratish borasidagi ishlariga koʻmaklashishga

---

<sup>7</sup> Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2023. – Б. 445.



yo'naltirish, hududda aholining barcha toifalarini ijtimoiy foydali mehnat bilan doimiy shug'ullanishlarini ta'minlash, shu orqali mahalla darajasidagi iqtisodiy masala va tadbirkorlik bilan bog'liq muammolar (mahalla aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni oshirish muammolari)ni hal etish.

Ijtimoiy davlatning bir jihati bo'lgan rivojlangan huquqiy tizim odamlarning munosib yashashi, ijtimoiy adolat, tenglik va davlat oldidagi ishonchni mustahkamlovchi omildir. Shuning uchun barcha jabhalarda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar chuqur huquqiy yondashuvni va uzluksiz rivojlanishni talab qiladi. Ijtimoiy davlat tamoyili, o'z mohiyatiga ko'ra, inson huquq va erkinliklarini e'tirof etuvchi, fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan demokratik huquqiy davlat modelidir. Uning huquqiy tomoni, birinchi navbatda, konstitutsiyaviy me'yorlar orqali belgilanadi. Shuningdek, ijtimoiy davlatning samarali faoliyat yuritishi uchun me'yoriy-huquqiy baza doimiy ravishda takomillashtirib borilishi, xalq manfaatiga yo'naltirilgan islohotlar bilan uyg'unlashib borishi chuqur tahlil va anglashni talab qilmoqda.

Dissertatsiyada ijtimoiy davlatga oid nazariy yondashuvlar va konsepsiyalarning tahlil asosida ijtimoiy yo'naltirilgan davlat modelining shakllanishi har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi milliy xususiyatlar, tarixiy tajriba va siyosiy tizimdan kelib chiqqanligi asoslangan. Iqtisodiy imkoniyatlar, siyosiy barqarorlik va madaniy muhit har bir davlatning ijtimoiy siyosatini belgilovchi omillardir. Qonunchilik bazasi ijtimoiy siyosat bilan chambarchas bog'langan. Sog'liqni saqlash, ta'lim olish, mehnat qilish va nafaqaga chiqish masalalari qonun darajasida tartibga solingan. Fuqarolarning asosiy ehtiyojlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu tizim uzoq yillar davomida sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan.

Ijtimoiy yo'naltirilgan davlat taraqqiyotida tashkiliy-huquqiy mexanizmlar masalasi, farovon hayot yaratishda ijtimoiy siyosat yuritish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunda inson huquqlari ta'minlash:

- shaxsiy ehtiyojlar va umumiy jamiyat manfaatlari o'rtasida muvozanat yaratish orqali fuqarolar turmush darajasini yaxshilashda;

- tengsizlik va moddiy tanglikni bartaraf etish, barcha fuqarolarning asosiy xizmatlarga – ta'lim, tibbiyot va boshqa zaruriy ehtiyojlarini qondirishda;

- fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash, ularni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish, insoniy munosabatlarni rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

Huquqiy tizim samaradorligida shaxslar va guruhlarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish darajasi, adolatli sud tizimiga murojaat qilish imkoniyati, huquqiy himoya mexanizmlari mavjudligi kabi omillar muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, mamlakatimizda amaliyotga tatbiq etilayotgan ijtimoiy tuzum aholiga teng sharoitlar yaratib, maxsus ehtiyojli shaxslar, qariyalar, voyaga yetmaganlar va moddiy ta'minoti past bo'lgan guruhlarni himoya qilish orqali insonparvarlik tamoyillarini hayotga tatbiq etmoqda. Bu tizim mehnat faoliyati, ta'lim olish, sog'lom hayot kechirish kabi

fundamental huquqlarni kafolatlab, shaxsning jamoat munosabatlarida o'z o'rnini to'liq anglashiga ko'maklashadi. Ijtimoiy tuzumning vazifalari faqat iqtisodiy yoki huquqiy vositalar bilan chegaralanmay, chuqur insonparvarlik va adolat tamoyillariga tayanib, jamiyatning har bir a'zosining o'zini himoyalangan va erkin his qilishiga imkon yaratuvchi ijtimoiy me'yor hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda ijtimoiy tuzum va uning huquqiy mexanizmlari aholi va yosh avlodning o'z mintaqalarini har tomonlama rivojlantirishda faol qatnashishini ta'minlashga katta ahamiyat beradi. Bunday mamlakatlarda fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ta'lim tizimi va ijtimoiy siyosat vositasida yoshlarning statistik ko'rsatkichlarni o'rganish, o'z hududining aholisi, joylashuvi va tabiiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda asosli xulosalar chiqarish malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Jahon tajribasi aholining hududiy taraqqiyotdagi faolligini ijtimoiy tuzumning ajralmas elementi sifatida baholaydi. Bu yondashuv O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda huquqiy tizimni takomillashtirish zarurati”** deb nomlangan uchinchi bobida yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlatning huquqiy asoslarini shakllantirish yo'llari, inson manfaatlarini ta'minlash va inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat o'rni hamda O'zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etishdagi muammolar va ularning yechimlari tadqiq etilgan.

Ijtimoiy davlat, birinchi navbatda, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash maqsadida vujudga kelgan institutsional tuzilma sifatida shakllangan. Shu vaqt o'rtasida davlatning roli o'zgarib, u faqat siyosiy tuzilma bo'lib qolmay, balki iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga ham xizmat qilishni boshladi. U faollikning xilma-xil ijtimoiy shakllari orqali ijtimoiy jihatdan zarur vazifalarni hal qiladi. “O'z faoliyatini mavjud qonunchilik asoslariga muvofiq tashkil etadigan, shu bilan birga, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini belgilangan qonunchilik tizimi doirasida ta'minlaydigan davlat huquqiy davlatdir”<sup>8</sup>. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy islohotlar, yangi kodekslar va qonunlarning qabul qilinishi, ijtimoiy himoya tizimining yangilanishi, ish bilan bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida fuqarolar manfaatlariga xizmat qiluvchi yondashuvlarning joriy etilishi bu boradagi sa'y-harakatlarning amaliy ifodasidir. Ayniqsa, davlatning “ijtimoiy davlat” sifatida yangi Konstitutsiyada mustahkamlanishi bu yo'ldagi qat'iy siyosiy irodaning namunasidir.

Tadqiqotda Konstitutsiyamizning yangi tahriri ijtimoiy davlat tushunchasini normativ darajada mustahkamlab, barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar, kuchli ijtimoiy himoya, ta'lim va tibbiyotdan foydalanish huquqlarini kafolatlayotganligi asoslab berilgan. Qonunchilik, ya'ni sud tizimining mustaqilligini ta'minlash, insonparvar jazoni qo'llash amaliyotini kengaytirish va ijtimoiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etish orqali ijtimoiy davlat institutlari kuchaytirilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va

---

<sup>8</sup> Черданцев А.Ф. Теория государства и права. – М.: “Юрайт”, 2002. – С.148.

